

XITOIY-TAYVAN MOJAROSI: MOJARONING KELIB CHIQISH SABABLARI, MUAMMOLARI VA GEOSIYOSIY AKTORLARI

Og'abek Norqulov Sharofiddin o'g'li

*Jahon Iqtisodiyoti va Diplomiya Universiteti
Xalqaro munosabatlar fakulteti 2-bosqich talabasi*

Qisqacha sharh: *Ushbu maqolada tadqiqotchi bugungi kunda dolzarb masala bo'lishi mumkin bo'lgan, hamda Sharqiy Osiyoning hududidagi siyosiy jarayonlarni o'z tizginidan chiqarib yuborish ehtimoli katta bo'lgan Xitoy-Tayvan mojarosi haqida so'z yuritadi. Bu inqirozning ahamiyati Sharqiy Osiyo uchun juda muhimdir. Chunki bu mojaro Sharqiy Osiyo mamlakatlari va Janubiy Xitoy dengizi atrofida joylashgan davlatlar uchun tashqi siyosat dilemmasini hosil qiladi. Xalqaro savdo salohiyatining asosini tashkil etadigan davlatlarning ushbu mojarodagi harakatlari haqida va bu mojarolar ortidan yuzaga kelishi mumkin bo'lgan ta'minot zanjirining uzilishning oqibatlarini haqida ham fikr bildirib o'tilgan. Undan tashqari maqolada geosiyosiy aktorlar, mintaqaviy muammolar haqida ham so'z yuritilgan.*

Kalit so'zlar: *"Qohira deklaratsiyasi", "1992-yilgi konsensus", "Yagona Xitoy tamoyili", "Bir davlat-ikki tizim", "yaxshi tizim uchun-yagona davlat", "Elektronika savdosi", "Bir kamar-bir yo'l" loyihasi, "yagona Xitoy, turli talqinlar", "Strategik noaniqlik konsepsiyasi", "Birinchi orol tizimi", "siyosiy mafkuralar jangi".*

Mojarolarning kelib chiqish sabablari

Bugungi kunda mavjud bo'lgan xalqaro munosabatlar va geosiyosiy inqirozlar asnosida, Xitoy - Tayvan mojarosining Sharqiy Osiyo mintaqasi uchun ta'siri biz o'ylagandan ko'ra yuqoridir. Bu mojaro faqatgina Sharqiy Osiyo uchun emas, balki global dunyo uchun qaysidir ma'noda yuqori ta'sir kuchiga ega. Undan tashqari bugungi kunda yirik iqtisodiy kuchga ega bo'lgan Xitoy Xalq Respublikasining o'z mintaqasidagi iqtisodiy siyosatiga jiddiy ta'sir qilishi ehtimoli yo'q emas. Chunki Rossiya-Ukraina mojarosi boshlangandan so'ng qaysidir ma'noda Xitoyning iqtisodiy o'sish dinamikasi pastga tomon harakatlanmoqda. Shuning uchun bu Tayvan bilan mojaroning ahamiyati nafaqat Xitoy, balki Tayvanning o'zi uchun ham katta ta'sirga egadir. Albatta, har bir narsaning boshlanish bo'g'ini bo'lgani kabi ushbu mojaroning ham o'ziga yarasha sabablari mavjuddir. Ko'plab manbalarda bu nizoning ildizi 1947-1949-yillarga borib taqaladi deb ma'lumot berishgan. Ammo asl bu inqirozning kelib chiqishi XIX asr oxiri ya'ni 1895-yil Yapon-Xitoy urushi yakunidan so'ng kelishilgan shartnoma asosida Sin dinastiyasi Tayvan hududini Yaponiyaga berib yuboradi. Shundan so'ng Sin dinastiyasi 1911-yil tugagandan so'ng Xitoy hududida keng mojarolar avj ola boshlaydi. Gomindanchilar (g'arbparast partiya) bilan birga kommunistik qarash vakillari o'rtasida keskinlik oshib boradi va 1921-yil Xitoy Kommunistik partiyasi (XKP) tuzilgandan so'ng Chan Kayshi boshchiligidagi Gomindanchi(KMT) partiyasi a'zolari bilan

keskinliklar oshib borib, oxir-oqibat 1927-yil mamlakatda fuqarolar urushi boshlanib ketadi. Bu fuqarolar urushi va ikkinchi jahon urushi arafasida 1943-yil AQSH, Xitoy va Buyuk Britaniya o'rtasida "Qohira deklaratsiyasi" imzolanadi va muzokalar so'ngida Xitoy Yaponiya tortib olgan Manchuriya, Tayvan va Pengu ni qaytarib oladi. Aynan shu davrlarda, aniqrog'i, 1947-yil Gomindanchilar mag'lubiyatga uchray boshlaydi va o'sha yili Xitoy hududidan qochib Tayvan oroliga kelib joylashadi. Chan Kayshi o'zi bilan birga 2 million partiya a'zolarini ham olib chiqib ketadi. Bu voqealardan so'ng AQSh ham 1947-yilda mintaqadagi harbiy missiyasini yakunlaydi va harbiy flotini olib chiqib ketadi. Shundan so'ng, 1949-yil 1-oktyabrda XKP rahbari Mao Szedun boshchiligida kommunistlar Xitoy Xalq Respublikasiga (XXR) asos solishadi. O'sha yili Gomindanchilar birgalikda Tayvan orolida Xitoy Respublikasi (ROC)ga asos soladi. KMT 1949-yil Xitoy Xalq Respublikasiga qarshi urushga tayyorlana boshlaydi va AQSH tomonidan harbiy qurol yaroq bilan ta'minlanadi, ammo 1950-yillarda AQSH Koreya urushini boshlab yuborgandan so'ng Tayvan hukumatidan urushni to'xtatishni talab qiladi va o'zing yettinchi harbiy flotini Tayvan bo'g'ozlariga joylashtiradi. 1950-yillar XXRning ham Tayvanni bosib olishga qodir kuchi mavjud emas edi. Xalqaro munosabatlarning sub'ekti hisoblangan davlatlar Xitoy bilan emas balki Tayvan bilan diplomatik aloqalarni saqlab qoldi. Xitoy tomonidan Tayvan mojarosi asnosida AQSH bilan ham keskinliklar oshib bordi va bu keskinliklar bugungi kungacha ham davom etmoqda. 1954-1955-yillar davomida AQSH va Tayvan munosabatlarida keskin o'sish kuzatila boshlaydi, hatto o'sha yillar oralig'ida AQSh Tayvan bilan "Xitoy-Amerika mudofaa to'g'risida" shartnomani imzolaydi¹. Keyingi davrlar mobaynida ham Pekin Tayvan faqat Xitoyniki va Tayvan Xitoyning provinsiyasi degan g'oyani ilgari sura boshlaydi. 1971-yil BMT da umumiy rezolyutsiya qabul qilinib unda Xitoy Tayvanni o'zining provinsiyasi ekanligini isbotlab uni BMTdan chiqarib yuborish uchun yetarli ovoz to'playdi². Shundan so'ng 1972-yil AQSh prezidenti Richard Niksonning XXRga tashrif buyuradi va XXR bilan aloqalarni tiklaydi. O'sha vaqtda Xitoy va AQSH o'rtasida birinchi qo'shma kommunikeys imzolanadi. O'sha kommunikeysida Xitoy va AQSh o'zining pozitsiyasini bildirib o'tishadi. Ya'ni xalqaro munosabatlarning ushbu tamoyillarini hisobga olgan holda, tomonlar quyidagi fikrlarni ta'kidlab o'tdilar:

- Xitoy va Qo'shma Shtatlar o'rtasidagi munosabatlarni normallashtirish yo'lidagi taraqqiyot barcha mamlakatlar manfaatlariga javob beradi.

- ikkalasi ham xalqaro harbiy mojaro xavfini kamaytirishni yoqlab chiqdi.

- Osiyo-Tinch okeani mintaqasida gegemonlikka intilmaslik kerak va har biri boshqa biron bir mamlakat yoki mamlakatlar guruhining bunday gegemonlikni o'rnatishga qaratilgan harakatlariga qarshi chiqish kerak.

- Davlatlarning hech biri uchinchi tomon nomidan muzokaralar olib borishga yoki boshqa davlatlar bilan boshqa davlatlarga qaratilgan bitimlar yoki kelishuvlarga kirishishga tayyor emas.

- Har ikki tomon ham har qanday yirik davlatning boshqa davlatlar bilan til biriktirishi yoki yirik davlatlarning dunyoni manfaat sohalariga bo'lib tashlashi dunyo xalqlari manfaatlariga zid bo'ladi, degan fikrga kelishadi³.

Tomonlar Xitoy va Qo'shma Shtatlar o'rtasidagi uzoq yillik jiddiy kelishmovchiliklarni ko'rib chiqdilar. Xitoy tomoni o'z pozitsiyasini yana bir bor tasdiqladi: Tayvan masalasi Xitoy va AQSh o'rtasidagi munosabatlarni normallashtirishga to'sqinlik qiluvchi hal qiluvchi masala, Xitoy Xalq Respublikasi hukumati Xitoyning yagona qonuniy hukumati hisoblanadi, Tayvan - Xitoyning uzoq vaqtdan beri vatanga qaytarilgan provinsiyasi, Tayvanni ozod qilish Xitoyning ichki ishi bo'lib, unga boshqa hech bir davlat aralashishga haqli emas, AQShning barcha kuchlari va harbiy inshootlari Tayvandan olib chiqilishi kerak. Xitoy hukumati "bitta Xitoy, bitta Tayvan", "bitta Xitoy, ikkita hukumat", "ikki Xitoy", "mustaqil Tayvan" ni yaratishga qaratilgan har qanday faoliyatga qat'iy qarshi chiqadi yoki "Tayvanning maqomi saqlanib qolishi kerak" degan tarafdorliklarni to'g'ri deb bilmaydi. AQSh tomonidan esa, Qo'shma Shtatlar Tayvan bo'g'ozining har ikki tomonidagi barcha xitoylar faqat bitta Xitoy borligini va Tayvan Xitoyning bir qismi ekanligini tan oladi. Qo'shma Shtatlar hukumati bu pozitsiyaga qarshi chiqmaydi. Bu Xitoyning o'zlari tomonidan Tayvan masalasini tinch yo'l bilan hal qilishdan manfaatdorligini yana bir bor tasdiqlaydi. Ushbu istiqbolni hisobga olgan holda, u AQShning barcha kuchlari va harbiy inshootlarini Tayvandan olib chiqib ketishning yakuniy maqsadini tasdiqlaydi. Ayni paytda, mintaqadagi keskinlik pasayganligi sababli, u Tayvandagi kuchlari va harbiy inshootlarini bosqichma-bosqich qisqartiradi. Tomonlar ikki xalq o'rtasidagi anglashuvni kengaytirish maqsadga muvofiq, degan fikrga kelishdi. Shu maqsadda fan, texnologiya, madaniyat, sport va jurnalistika kabi sohalarda odamlar o'rtasidagi aloqalar va almashinuvlar o'zaro manfaatli bo'lishi mumkin bo'lgan aniq sohalarni muhokama qildilar. Har bir tomon bunday aloqalar va almashinuvlarni yanada rivojlantirishga ko'maklashish majburiyatini oladi. 1978-yilda Den Seyopin boshchiligida Xitoy hukumati iqtisodiy o'sish uchun bozor iqtisodiyotiga o'ta boshladi va mamlakatda iqtisodiy islohotlarning umumiy ruhi sotsializmdan kapitalizm tomonga talpina boshladi⁴. 1979-yil XXR rahbari Den Seyopin Vashingtonga tashrif buyuradi va Xitoy-AQSh o'rtasida rasman diplomatik aloqalar o'rnatilgandan so'ng, AQSh-Tayvan o'rtasidagi "Mudofaa to'g'risidagi" shartnoma tugatiladi. Aynan 1979-yilda AQSh-Xitoy o'rtasida "Tayvan munosabatlari to'g'risida" qonun ya'ni ikkinchi kommunikeys imzolanadi. Va bu kommunikeysida ham Xitoy avvalgi talablarni aytib o'tadi. Shundan 3 yil o'tib aniqrog'i 1982-yil 17-avgustda Ronald Reygan hukumati bilan birga uchinchi kommunikeysi ham imzolanadi. Va bu kommunikeysining asosiy bandi Reygan hukumati tomonidan Tayvan Xitoy provinsiyasi ekanligini tan oldi ammo Tayvanga qurol-yaroq sotishni qaytadan boshlaganini ma'lum qildi⁵. Bu o'sha vaqtda tashqi siyosatda "strategik noaniqlik konsepsiyasi"ni keltirib chiqardi. Strtegik noaniqlik bu AQSh tomonidan Tayvan masalasiga kelganda rasman Tayvanni Xitoyning provinsiyasi deb biladi ammo mojara yuzaga keladigan bo'lsa Tayvanni himoya qiladi kerak bo'lsa qurollantiradi degan konsepsiya edi. 1986-yilda Tayvanda yangi bir partiya Demokratik progressiv partiyasi (DPP) tuzildi va u


KMTning saylovlardagi asosiy raqibiga aylandi. Shundan keyin biroz bo'lsada KMT va XRR o'rtasida yaqinlik o'rnatila boshlandi hatto 1987-yil Tayvanliklarga birinchi marta Xitoyga tashrifi buyurishga ruxsat berdi. 1991-yil Tayvanda favqulodda holat tugatiladi va o'sha yili DPP Tayvanni mustaqilligini e'tirof eta boshlaydi⁶. O'sha davrlarda Xitoy-Tayvan o'rtasida ham munosabatlar biroz yumshaydi. Chunki KMT partiyasiga qarshi yangi bir demokratik va g'arbparast partiya yuzaga kelishi KMT ning keyingi faoliyatiga ta'sir qiladi, ya'ni KMT Tayvanni Xitoy bilan birlashtirish tarafdori bo'ldi. 1992-yil 28-30-oktabr kunlari Gonkongda bo'lib o'tgan muzokaralar chog'ida Tayvan bo'g'ozlari bo'ylab materikdagi aloqalar assotsiatsiyasi (ARATS) va Tayvandagi Straits Exchange Foundation (SEF) vakillari "Yagona Xitoy tamoyili"ning ta'rifini o'zaro muhokama qilishdi. - Bo'g'ozlar savdo birjalari. ARATS, Tayvan tomoni "yagona Xitoy printsipi" ni tan olgan holda, ta'rifni muhokama qilish uchun ochiq qoldirishni taklif qildi. Ko'proq munozaralardan so'ng, SEF vakili "Yagona Xitoy tamoyili" har bir tomon o'ziga mos keladigan tarzda talqin qilinishi kerak deb bayonot berdi. 16-noyabr kuni ARATS SEFga uning taklifi hurmat qilinishi va qabul qilinishi hamda Bo'g'ozlar bo'ylab savdo muzokaralarida "yagona Xitoy"ning siyosiy ma'nosi muhokama qilinmasligi haqida rasmiy xabarnoma yubordi. 3 dekabrda SEF javobida SEF roziligini bildirdi va yakuniy kelishuv odatda "1992 yilgi konsensus" deb nomlana boshladi⁷. 1993-yilda Xitoy-Tayvan o'rtasidagi birinchi to'g'ridan to'g'ri muzokaralar Singapurda bo'lib o'tadi⁸. Ammo 1995-yildagi Tayvan Prezidenti Li Teng Xuining Kornel Universitetidagi nutqi bo'lib o'tishi Xitoyning keskin noroziligiga olib keldi⁹. Tayvanning bu harakatlaridan so'ng Xitoy hukumati yana qurollanishga e'tiborni avvalgiga nisbatdan oshirib yubordi. Bundan xavotirlangan Bush hukumati 2001-yil Tayvanga qurol sotish paketini tasdiqladi. Shunday vaziyatda Tayvanning KMT va Xitoyning XKP partiyasi 1949-yildan buyon ilkbor 2005-yilda ikki partiyaning uchrashuvi bo'lib o'tdi¹⁰. Tayvan-Xitoyning umumiy bir g'oyasi ya'ni yagona Xitoy tamoyili ularni ma'lum bir muddat ikki mamlakat o'rtasidagi munosabatni qisman yumshatdi. Ammo ikki tomon ham o'zini yagona Xitoy deb bilishi tashqi siyosatda "yagona Xitoy, turli talqinlarda" degan tamoyilni shakllantirib qo'ydi. 2016-yil Tayvandagi saylovlarda DPP partiyasidan Tsay Invenning hokimiyatga kelishi va AQSh prezidenti Donald Tramp bilan qo'ng'iroq orqali suhbat qilibshi bilan bir qatorda uning 2019-yilda "Tayvanning 23 million aholisi o'rtasidagi mutlaq konsensus bizning "bir davlat, ikki tizim" dan voz kechishimiz", deb ta'kidlagani va yagona Xitoy Respublikasi (ROC) mavjudligini o'z nutqlarida ko'p marotaba takrorlashi Pekin hukumatining jahlini chiqardi¹¹. 2017-yilda D. Tramp Tayvanga 1.4 mlrdlik qurol-aslaha sotish haqida qaror qabul qildi. Shuningdek, 2017-yil AQSH-Tayvan aloqalarini mustahkamlovchi qonun ham qabul qilinish bilan bir qatorda 2018-yil Tayvan AQSHdan 330 mln dollarlik F-16 qiruvchi samolyoti va qurol-yaroq sotib oladi. Oxirgi paytlarda AQSh hukumati tomonidan amalga oshirilayotgan ishlar Xitoyning Tayvan masalasidagi manfaatlariga jiddiy ta'sir qilmoqda. Oxirgi marta 2022-yilda Tayvan prezidenti ya'ni Tsay Invenning Vashingtonga tashrifi chog'ida AQSh prezidenti Jozef Bayden uni qabul qilgan va bu tashrifdan rasmiy Pekin jahli chiqqanligini bayon qilgan. Ushbu ikki rahbarning uchrashuvida Jo Baydenga muxbirlardan biri Tayvanni himoya qilish

uchun XXR bilan konfliktga borasizmi deb so'raganda u "ha" deb javob berish norasmiy "Strategik noaniqlik"ga yakun yasadi. 1927-yildan buyon davom etayotgan ikki partiyaning qarama-qarshiliklari bugungi kungacha davom etishi va bugungi kunning dolzarb masalasiga aylanib borish ehtimoli yuqori ekanligi haqiqatdir.

Asosiy muammolari va Geosiyosiy aktorlari

Xitoy-Tayvan mojarosi azaldan mintaqaviy va global ahamiyatga ega bo'lgan yirik inqirozlardan biridir. Uning salohiyati, ta'sir kuchi va o'zida jamlay olgan kuchlar muvozanati kabi ahamiyatlarga egaligi uni boshqa bir mojarolar va Sovuq urush davridagi mojarolarning oldida yanada globalroq ekanligini ko'rsatib qo'yadi. Undan tashqari, Xitoy o'zining qo'shnilari bilan mavjud bo'lgan o'n to'rtta chegara nizolarini tinch yo'l bilan, asosan jiddiy murosallarni taklif qilish orqali hal qilishga urinmoqda va endi navbat Tayvanga keldi¹². Xitoy-Tayvan mojarosining asosiy muammosi bu Tayvanning geostrategik joylashuviga bog'liqligidir. Tayvan va Pengu Xitoy materikining sharqiy dengiz qanotini qo'riqlaydi. Dushman dengiz kuchi qo'lida ular Xitoy qirg'oqlarini blokirovka qilish va mamlakatning sharqiy qismidagi shaharlar va transport liniyalarini bombalash uchun ishlatilishi mumkin edi. Shuning uchun ular Xitoy xavfsizligi uchun mutlaqo zarurdir¹³. Demak, XXRning asosiy maqsadi, kelajakda unga bo'lishi mumkin bo'lgan mintaqaviy tahdidlarni oldini oladi deb qarasak, o'z-o'zidan AQShning maqsadi "Birinchi orol zanjiri"dan foydalangan holda, Xitoyning mintaqaviy ta'sirini cheklab qo'yish va unga doimiy xavf bo'lish uchun Tayvanni Xitoydan ozod bo'lishini xohlaydi. Agar Xitoy Tayvanni egallab olsa, ba'zi G'arb ekspertlari u Tinch okeanining g'arbiy mintaqasida qudratni loyihalash uchun yaxshiroq joylashishi va Guam va Gavayigacha bo'lgan AQSh harbiy bazalariga tahdid solishi mumkinligini taxmin qilmoqda. Biroq, Xitoy o'z niyatlari faqat tinch ekanligini ta'kidlaydi¹⁴. Bu geostrategik joylashuv faqat harbiy, siyosiy va hududiy ahamiyatga ega emas. Tayvanning iqtisodiy ahamiyatga moyilligi ham yuqori sanaladi. Misol uchun, Tayvanga savdo ta'siri haqida gaplashadigan bo'lsak. Birinchidan, Ta'minot zanjirining uzilishi yarimo'tkazgichlar, elektronika va axborot texnologiyalari kabi sohalarga ta'sir ko'rsatdi, bu esa kechikishlar va yetishmovchiliklarga olib keldi. Intellectual mulk bilan bog'liq xavotirlar texnologik hamkorlikni ehtiyotkor qilishga majbur qildi. Ikkinchidan, Bozorga kirish cheklovlari va ishlab chiqarishdagi uzilishlar eksportga qaram bo'lgan tarmoqlar uchun qiyinchiliklar tug'dirdi. Uchinchidan, Tayvan iqtisodiyoti asosan Xitoy bilan savdoga tayanadi, bu esa Tayvan savdosining muhim qismini tashkil qiladi. Tayvanning umumiy savdosi 2018 yildan 2021 yilgacha o'sdi, ammo paydo bo'lgan keskinliklar tufayli 2022 yilda biroz pasayish kuzatildi. Tayvan bilan birga Xitoyga qanday ta'sir qilganligini ko'rib chiqamiz. Birinchidan, Xitoyning yirik hamkorlardan importi 2022 yilning birinchi yarmida qisqardi va bu global ta'minot zanjirining uzilishiga yordam berdi. Ikkinchidan, Xitoy bilan savdodagi uzilishlar uning Osiyo-Tinch okeani savdo hamkorlariga ta'sir qilib, ishlab chiqarishning sekinlashishiga va daromadning yo'qolishiga olib keladi. Xitoy eksporti ham 2022-yilda 2021-yilga nisbatan qisqardi¹⁵. Shuningdek, IEP ma'lumotlariga ko'ra, Xitoyning Tayvanni blokadasi birinchi yil ichida 2,7 trillion dollar miqdorida hayratlanarli


darajada yo'qotishga olib keladi. Biroq, bu ko'rsatkich konservativ hisoblanadi, bu esa haqiqiy iqtisodiy ta'sir yanada jiddiyoq bo'lishi mumkinligini ko'rsatadi. Blokada ko'plab Janubi-Sharqiy Osiyo mamlakatlariga chuqur ta'sir ko'rsatib, ularning iqtisodida jiddiy buzilishlarga olib keladi. Xususan, IEP global iqtisodiy ishlab chiqarishning 2,8 foizga pasayishini taxmin qilmoqda, bu 2008 yilgi global moliyaviy inqiroz davridagi yo'qotishdan deyarli ikki baravar ko'p. Xitoy iqtisodiyoti taxminan 7 foizga qisqaradi, Tayvan iqtisodiyoti esa deyarli 40 foizga halokatli qisqarishga duch keladi¹⁶. Agar Xitoy Tayvanni tashqi dunyodan uzib qo'yadigan bo'lsa, bu iqtisodiy ta'minot zanjirining buzilishiga va dunyoda Tayvan yetkazib berayotgan yarimo'tkazgichlar va chip tanqisligi ortib ketishi ehtimoli juda yuqori. Ushbu jadvalda ko'rinib turganidek Tayvan yarimo'tkazgich va chiplar savdosida o'zining yirik pozitsiyasiga ega.



(IEP statistikasi).

Shuningdek, AQSh kompaniyalari, hattoki Apple kompaniyasi ham ushbu TSMC kompaniyasi ishlab chiqaradigan elektronika mahsulotlariga bog'lanib qolgan. Ma'lumot o'rnida, 2021-yil AQSh Tayvandan 79 mlrd dollarlik chip xarid qilgan¹⁷. Xitoyning o'zi ham chiplarning qariyb 70 %ini TSMC dan oladi. Shuningdek yana bir muammo bu Tayvan bo'g'ozlarining xalqaro savdodagi ahamiyati keskin tushib ketishi ehtimoli yo'q emas. Chunki, Tayvan bo'g'ozlari 2022-yilning dastlabki yetti oy ichida Dunyodagi 5400 ta operatsion konteyner kemalarining 48% ini o'z hududidan o'tkazgan¹⁸. Ba'zi manbalarda keltirishicha, yil davomida dunyodagi kemalarning 88% i Tayvan hududidan o'tadi¹⁹. Yana bu inqirozning ahamiyatli tomoni shundaki, ikki davlatning ham iqtisodiyoti bir-biriga bog'ligidir, chunki Tayvan eksport salohiyatining 42 foizi Xitoy va Gongkongga to'g'ri kelsa, 15 foizi AQSH hissasiga to'g'ri keladi. Tayvanning import salohiyati ham asosan Xitoyga bog'lanib qolgan ya'ni Tayvan importlarining 22 %i XXR hissasiga to'g'ri kelsa, AQSh hissasiga 10 % mos tushadi²⁰. Yana bir muammolardan biri bu AQSh uchun investetsiya salohiyatining yo'qolishidir. 2021-yil statistikasiga ko'ra Tayvan Xitoyga 5.86 mlrdlik investetsiya kiritgan, Xitoy esa Tayvanga 116.15 mln dollarlik investetsiyalarni jalb qilgan²¹. 2023-yil ma'lumotlarga ko'ra, AQSHda saqlanayotgan qimmatli qog'ozlarning asosiy xorijiy egalari doirasida Yaponiya 1.1 trln dollar bilan gegemonlikni saqlab turgan bo'lsa, Tayvan 243 mlrd dollar bilan 11-o'rinni band qilib turibdi²². Ko'rinib turibdiki, Tayvanning o'ziga yarasha investetsiya salohiyati va qimmatli qog'ozlar bilan ishlash uslubi

mavjud. Xitoy-Tayvan mojarosi asnosida, Tayvanda yuzaga keladigan muammolardan biri bu yarimo'tkazgich va chip mahsulotlarini ishlab chiqarish uchun kerak bo'ladigan "tabiiy qum" tanqisligi yuzaga kelishidir. Chunki, yarimo'tkazgich va chiplarni ishlab chiqarishda tabiiy qum, kvarts qum kabi qumlarning ahamiyati yuqori. Ma'lumot o'rnida aytish joizki, Bugungi kunda Tayvan, asosan TSMC koorparatsiyasi yiliga 90 mln tonna tabiiy qum iste'mol qilmoqda va ularning 1/3 qismi Xitoydan keltirilmoqda²³. Bu inqirozning keyingi ta'siri XXR iqtisodiy siyosatiga borib taqaladi. Chunki Xitoy tomonidan 2013-yilda e'lon qilingan "Bir kamar - Bir yo'l" loyihasining ahamiyati Tayvan oroliga ham qisman bog'liqdir. Chunki, Xitoyning asosiy iqtisodiy zonasi ya'ni sharqiy tomonlaridan boshlanuvchi bu xalqaro yo'l Tayvan bo'g'ozlari asosan Malakka bo'g'ozini orqali Hind okeani va Hindiston yarim oroligini aylanib o'tib Afrikaning sharqiy chekkasi ya'ni Qizil dengiz va Suvaysh kanal tomon bog'langanligi, Suvaysh kanalidan so'ng O'rtayer dengizini kesib o'tib Yevropaga mahsulotlarni yetkazib berishni yo'lga qo'ygan edi. Bu loyiha juda qudratga ega ya'ni bu loyiha dunyodagi 60 dan ortiq mamalakatlarini qamrab oladi, shuningdek, o'tgan yili Jahon banki "Bir kamar- bir yo'l" infratuzilmasi loyihalari uchun qariyb 575 milliard AQSh dollari miqdorida sarflangan yoki sarflanish bosqichida ekanligini taxmin qildi²⁴. Undan tashqari, Xitoy hukumati "Bir kamar - bir yo'l" loyihasi tashabbusi bilan 2018-yil "Tayvanga foyda keltiradigan 31 ta chora" to'g'risidagi qarori bilan Tayvanning qanchalik muhim geosiyosiy nuqta ekanligini ta'kidlab o'tish kerak. Shuningdek, AQSh boshchiligidagi Janubiy-Sharqiy Osiyo mamlakatlari Tayvan bilan birgalikda harakat qilishni o'z oldiga maqsad qilib olgan. "Bir kamar-bir yo'l" loyihasiga qarshi kurash strategiyasida Vashington rivojlanayotgan iqtisodiyotlar infratuzilmaga sarmoya kiritishda hamkorlik qilish uchun bir qancha Osiyo-Tinch okeani demokratik davlatlari ishtirokini jalb qildi. Masalan, Yaponiya, Janubiy Koreya va Avstraliya o'z kompaniyalari infratuzilma loyihalarini birgalikda moliyalashtirish uchun AQSh Xalqaro Taraqqiyot Moliya Korporatsiyasi (DFC) bilan hamkorlik qilishga kelishib oldilar. Bundan tashqari, o'tgan yili Qo'shma Shtatlar, Yaponiya va Avstraliya tomonidan tashkil etilgan Blue Dot tarmog'i "ochiq va inklyuziv, shaffof, iqtisodiy jihatdan foydali, moliyaviy, ekologik va ijtimoiy jihatdan barqaror va xalqaro standartlarga mos keladigan yuqori sifatli infratuzilma investitsiyalarini rag'batlantirishga intiladi. standartlar, qonunlar va qoidalar." Moviy nuqta tarmog'ini qo'llab-quvvatlagan Tayvan infratuzilma investitsiyalarini moliyalashtirish va investitsiya loyihalari sifatini oshirish bo'yicha AQSh strategiyasiga qo'shilgan eng so'nggi Osiyo demokratiyasiga aylandi²⁵. XXR buni anglab yetgan holda, Bir kamar - bir yo'l loyihasida dengiz yo'lidan ko'ra quruqlik ya'ni temiryo'l ahamiyatini anglab yetgan shekilli oxirgi paytlarda Markaziy Osiyo davlatlari, Eron, Afg'oniston, Pokiston va Turkiya davlatlari orqali Yevropaga chiqish uchun katta temir yo'l loyihalarini amalga oshirmoqda. Chunki Temiryo'l narxlari havo yo'lga sarflanadigan xarajatlardan 80% arzon, dengiz yo'lidagi xarajatlardan esa 50 % arzonroq hisoblanadi. Undan tashqari dengiz va havo yo'llari temiryo'ldek 8,5 - 20 kun oralig'ida yuklarni Yevropaga yetkazish salohiyatiga ega emas²⁶.



Geosiyosiy aktorlar - bu xalqaro yoki mintaqaviy ta'sirga ega bo'lgan va o'zining harbiy, diplomatik salohiyati yuqori hisoblanishi bilan bir qatorda jahon siyosatida "soft power" dan to'g'ri foydalana olish imkoniyatiga ega bo'lgan geosiyosiy ahamiyatga ega bo'lgan davlatlardir. Bugungi kundagi mojarolarning ahamiyati yo global bo'ladi yoki mintaqaviy. Hozir Tayvan-Xitoy mojarosini faqat mintaqaviy deyish biroz xato hisoblanadi, chunki unda globallikka qaratilgan ta'sirlar ham mavjud. Xitoy-Tayvan mojarosiga geosiyosiy aktorlar haqida gapirishdan oldin bu mintaqada mavjud bo'lgan asosiy zidliklar va kuchlar muvozanati haqida ma'lumot berib o'tamiz. Ushbu mintaqada Xitoy, Yaponiya, Janubiy Koreya, Australia va Tayvan aktori mavjud bo'lsa, AQSh, Hindiston, Pokiston kabi davlatlarning ta'siri va o'zlarining manfaatlari mujassamlashgan. Bu mintaqada vaziyat o'ta chigal hisoblanadi ya'ni bir-birining o'rtasida juda ko'p miqdorda zidliklar mavjud. Misol uchun, Xitoy Hindiston bilan konfliktlarga ega hisoblanadi. Chunki XXR Hindistonning Tibetda joylashgan Anuchar-Pradesh hududiga da'volar kiritgan va shuningdek Kashmirning 25 %ini boshqaradi. Shuning uchun Xitoy Hindiston bilan zidliklarda Pokiston bilan yaqin hamkorlikka ega hisoblanadi. (Ma'lumot o'rnida, Pokiston va Hindiston ham o'zaro dushman mamlakatlar hisoblanadi). Xitoy - Tayvan mojarosida Yaponiya Tayvanni qo'llab-quvvatlaydi, chunki Xitoy bilan uning ham munosabatlari yaxshi emas, ya'ni Xitoy Yaponiyaning Senkoku orolini to'liq nazorat qilishi Yaponiya hukumatiga yoqmaydi. Shuning uchun ham Yaponiya AQSh boshchiligidagi Xitoyga qarshi qaratilgan har bir koalitsiyaga intiladi. Xitoyning Vietnam bilan ham aloqasini zo'r deb bo'lmaydi, chunki Xitoy va Vietnam o'zlarida sotsialistik boshqaruvni joriy etgan davlatlar hisoblanishadi ammo bu ham milliy manfaatlar bo'lgan joyda yaqinlashish uchun turtki bo'lmaydi. Chunki Xitoy Vietnam qirg'oqlaridan topilgan neft va gaz zaxiralariga da'vosi bor. Ushbu mintaqada kuchlar muvozanatini AQSh o'zida mujassamlashtirib turibdi. Chunki Xitoy ushbu mintaqada so'zsiz lider hisoblanadi va SIPRI ma'lumotlariga ko'ra dunyoda AQShdan so'ng eng ko'p miqdorda harbiy xarajatlarni amalga oshirayotgan davlat hisoblanadi. Ya'ni yiliga Xitoy harbiy xarajatlari uchun 250 mlrd dollar sarflaydi, AQSh esa 877 mlrd dollar sarflasa, uchinchi o'rinda Rossiya Federatsiyasi 86.4 mlrd dollar sarflaydi²⁷. Undan tashqari Xitoyda yadro quroli mavjud Tayvanda esa yadro quroli mavjud emas, ammo uni himoya qilishni va uning xavfsizligini ta'minlashni AQSh o'z zimmasiga olgan. Ushbu kuchlar muvozanati mavjud ekan Xitoy Tayvanga nisbatdan qaltis harakat qilish ehtimoli juda pastdir. (Ma'lumot o'rnida, Agar Falastin-Isroil urushida ham kuchlar muvozanati mavjud bo'lganda hech qachon Isroil Falastinga bostirib kirishmas edi).

Xulosa qilib aytish kerakki, Xitoy-Tayvan mojarosi azaliy ya'ni ildizlari bir asrlik muammolarni o'ziga qamrab olganligi ham ahamiyatlidir. Undan tashqari ikki davlat ham o'zini yagona Xitoy mamlakati deb bilishi va turli xil g'oya va konsepsiyalar ishlab chiqishi bu ikki davlat o'rtasida mavjud bo'lgan "mafkuralar jangi"ning ham roli muhim ekanligini bildiradi. Yuqorida aytib o'tganimizdek, "bir davlat, ikki tizim", "yaxshi tizim uchun yagona davlat" , "yagona Xitoy", "yagona Tayvan" kabi g'oyalar asosida xalqi ongiga turli xil mafkuralarni joylagandan so'ng, bu ikki davlat fuqarolari ham qaysi davlat yagona Xitoy ekanligini anglab yetishi qiyin bo'ladi va qarshilik ahamiyati susaya boshlaydi deb bilishadi. Yana bu mojaroning ahamiyatli tomoni shundaki, tashqi siyosat va siyosiy boshqaruvda ikki mamlakat bir-biri bilan dushman hisoblansada, ikki davlatning ham iqtisodiyoti bir-biriga bog'liqligi ushbu inqirozning qiymatini oshirib yuboradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Tomas J. Five things to know about the Taiwan-China conflict, <https://penntoday.upenn.edu/news/five-things-know-about-taiwan-china-conflict> , 2022.
2. Michael J., Bonnie S., What Is the U.S. "One China" Policy, and Why Does it Matter?, <https://www.csis.org/analysis/what-us-one-china-policy-and-why-does-it-matter> ,2017.
3. Wilson Center <https://digitalarchive.wilsoncenter.org/document/joint-communiqué-between-united-states-and-china>
4. Michael J., Bonnie S., What Is the U.S. "One China" Policy, and Why Does it Matter?, <https://www.csis.org/analysis/what-us-one-china-policy-and-why-does-it-matter> ,2017
5. Tayvandagi Amerika instituti, <https://www.ait.org.tw/u-s-prc-joint-communiqué-1982/> , 2022.
6. Mazumdaru S., What's the Taiwan-China conflict all about?, <https://www.dw.com/en/whats-the-taiwan-china-conflict-all-about/a-62604508> , 2022.
7. China org, http://www.china.org.cn/china/18th_cpc_congress/2012-11/16/content_27085967.htm , 2012.
8. Al Jazeera, How prepared is Taiwan for a war with China?, <https://www.aljazeera.com/amp/news/2023/10/10/how-prepared-is-taiwan-for-a-war-with-china>
9. Michael J., Bonnie S., What Is the U.S. "One China" Policy, and Why Does it Matter?, <https://www.csis.org/analysis/what-us-one-china-policy-and-why-does-it-matter> ,2017
10. Al Jazeera, How prepared is Taiwan for a war with China?, <https://www.aljazeera.com/amp/news/2023/10/10/how-prepared-is-taiwan-for-a-war-with-china>

11. Xaenli P., Sher N., How Pelosi's Taiwan Visit Has Set a New Status Quo for U.S-China Tensions <https://carnegieendowment.org/2022/08/17/how-pelosi-s-taiwan-visit-has-set-new-status-quo-for-u.s-china-tensions-pub-87696>
12. Robert J. Art, "The United States and the Rise of China," in Robert S. Ross and Zhu Feng, China's Ascent: Power Security and the Future of International Politics, Ithaca, Cornell University Press, 2008, p. 279.
13. The Geopolitics of Taiwan <https://taiwantoday.tw/news.php?post=6670&unit=4>
14. Salimullah F. Kirubakaran J., China – Taiwan Conflict: Business Impact and Advisory, (2023), Senior Analysts, GBS Procurement & Finance. <https://www.beroeinc.com/blog/china-taiwan-conflict-business-impact-advisory/>
15. Salimullah F. Kirubakaran J., China – Taiwan Conflict: Business Impact and Advisory, (2023), Senior Analysts, GBS Procurement & Finance. <https://www.beroeinc.com/blog/china-taiwan-conflict-business-impact-advisory/>
16. Ziwen Z., Explainer China-Taiwan trade, and everything you need to know, <https://www.scmp.com/economy/china-economy/article/3187890/china-taiwan-trade-and-everything-you-need-know>, 2022.
17. Assessing the Global Economic Ramifications of a Chinese Blockade on Taiwan. <https://www.visionofhumanity.org/assessing-the-global-economic-ramifications-of-a-chinese-blockade-on-taiwan/>
18. Varley K., Taiwan tensions raise risks in one of busiest shipping lanes, https://m.economictimes.com/small-biz/trade/exports/insights/taiwan-tensions-raise-risks-in-one-of-busiest-shipping-lanes/amp_articleshow/93312490.cms, 2022.
19. Xiaojun K., East Asia: Impact of China and Taiwan conflict on shipping, <https://www.riskintelligence.eu/analyst-briefings/east-asia-impact-of-china-and-taiwan-conflict>, 2022.
20. Cheng E., Taiwan's trade with China is far bigger than its trade with the U.S. , <https://www.cnbc.com/2022/08/05/taiwans-trade-with-china-is-far-bigger-than-its-trade-with-the-us.html>, 2022.
21. Ziwen Z., Explainer China-Taiwan trade, and everything you need to know, <https://www.scmp.com/economy/china-economy/article/3187890/china-taiwan-trade-and-everything-you-need-know>, 2022.
22. Statista, Major foreign holders of United States treasury securities as of July 2023, <https://www.statista.com/statistics/246420/major-foreign-holders-of-us-treasury-debt/>, 2023
23. Zhihua L., Taiwan's chip manufacturing industry to be affected by Chinese mainland's export suspension, <https://global.chinadaily.com.cn/a/202208/03/WS62e9e98ca310fd2b29e7009f.html>, 2022.

24. Chang J., US-Taiwan Plan to Counter China's Belt and Road Initiative, (2020), <https://globaltaiwan.org/2020/12/us-taiwan-plan-to-counter-chinas-belt-and-road-initiative/>

25. Chang J., US-Taiwan Plan to Counter China's Belt and Road Initiative, (2020), <https://globaltaiwan.org/2020/12/us-taiwan-plan-to-counter-chinas-belt-and-road-initiative/>

26. Uyg'un Y., Ahsan J., Tan A., Analyzing the Railway Network of the Belt and Road Initiative, Cogent Business & Management Volume 8, 2021 - Issue 1 <https://www.tandfonline.com/doi/full/10.1080/23311975.2021.1932066>

27. Stockholm International Peace Research Institute (SIPRI)., World military expenditure reaches new record high as European spending surges, <https://www.sipri.org/media/press-release/2023/world-military-expenditure-reaches-new-record-high-european-spending-surges>